



## O’QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Muallif:** Ashurova Dilfuza Muxiddinovna<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti “Pedagogika va psixologiya” magistratura mutaxassisichligi 2-kurs magistranti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14435606>

### ANNOTATSIYA

mazkur maqolada umumiy o’rta ta’lim maktabi o’quvchilari oraisda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik zarurati va muammolari muhokama etilgan.

**Kalit so’zlar:** kitob, kitobxonlik, o’qish, madaniyat, vaqt, davlat, ustivorlik, mexanizm, masala.

### KIRISH

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo’lgan. Har bir davrning o’z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Biroq, keyingi davrlarda kitobxonlik masalasi Davlatimizning asosiy ustivor vazifalariga aylanib ulgurdi. Ayniqasa, butun dunyoda raqamli texnologiyalarning keng rivojlanganligi, barcha sohalarni keng qamrab oldi. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o’z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e’tibor berilgan. Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “O’qish madaniyati” kabi atamalar bilan qo’llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlari sifatida bir qator ilmiy o’rganishlar olib borilgan.

### METODOLOGIK ASOSI

O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida ustivor vazifalar belgilab berilgan”. Oxirgi uch-to’rt yilda O’zbekiston Respublikasining ta’lim tizimida juda katta ijodiy o’zgarishlar yuz berdi. Bu o’zgarishlar shaxsan Davlat rahbarining say’-haraktari asosida oid borildi. Natijada bir qancha me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, pirovard natijada ta’lim tizimi bar qator isloh qilindi. Jumladan, Prezidentning 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-1533-son, 2014 yil 6 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-2124-son, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ 2909-son Qarorlari, 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish bo’yicha komissiya tuzish to’g’risida”gi Farmoyishi, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berishning taklif etilishi, maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartirish, oliy ta'limda o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga o'tkazish, qator oliy ta'lim muassasalarini o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tkazish, ta'lim sohasini to'liq raqamlashtirish, davlat-hususiylar shteriklik mexanizmlarini ta'lim sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

## ASOSIY QISM

Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: "Kitobxonlikka o'rganish uchun qanchalik ko'p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag'ishladim, lekin hali ham o'rgandim, deb ayta olmayman".

Professor V.F.Asmus o'zining "Kitobxonlik – mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta'rif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir ko'zadan ikkinchi ko'zaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi». «Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda, - deb yozadi H.To'xtaboev, kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan.

Professor E.I.Yo'ldoshev «O'qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta'rif beradi: «O'qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi 18 maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, kitobdan to'la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi».

Safo Matchonning qarashlarida «Kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini nechog'li uqishini, ya'ni asar «tili»ga tushinishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha kitobxonlik talanti tug'ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi.

A.Umarovning fikricha "Mutolaa" madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir. Ayni chog'da mutolaa madaniyatini ta'lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma'lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar - kitoblar (badiiy, ilmiy, o'quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo'llanma va hokazolar), shuningdek, subyekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila

a'zolari,...) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiy ma'lumotdan farqlash lozim bo'ladi».

Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir». «Axborot olish madaniyati» kontekstida uning tarbiyaga muhtoj elementlarini aniqlaymiz: –o'qishga, axborot olishga mayl, havas, ishtiyoqni shakllantirish; –o'qilgan kitob orqali fikrlash yo'llarini o'rgatish; – mavjud kitobxonlik malakalarini takomillashtirish.

Ta'lim-tarbiya jarayonida tom ma'noda davr talabiga mos haqiqiy vatanparvar, salohiyatli, dadil yoshlarni, g'oyaviy-mafkuraviy va intellektual jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashda, zarur ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda adabiyot darslarining insonshunoslik, ruhshunoslik, axloqshunoslik sifatleri to'la namoyon bo'ladi. Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o'zi ham yuksak didga ega va ma'rifatli va bilimli bo'lishlari kerak. Ma'lumki, bola kitob o'qishni bilgan taqdirdagina, kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Kitob bolaning ma'naviy boyishi uchun uni 20 ma'naviy, aqliy, estetik o'sishga yo'llashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o'smirlik davrida uning ma'naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki, o'smir hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o'yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, uning hayoti mazmunsiz, voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan aql-zakovatli ma'nan barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi ham, o'qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta. Lekin hozirgi kunda o'quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanyapti. O'quvchi faqat adabiyot darsida o'qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo'lga olyapti. Natijada esa ma'lum: mutolaa jarayoni sevimli mashg'ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo'lmagan o'quvchi keyinchalik berilgan katta hajmli asarlarni o'qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq sezmaydi, xohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g'oyaviy-badiiy maqsadini to'la anglolmaydi.

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali dunyoqarashini rivojlantirishni ilmiy asosda o'rganish va tahlili etishda quyidagi asosiy vazifalarni hal etish muhim masalas sifatida qarash kerak:

o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali insonparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishning umumnazariy masalalarini o'rganish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida (mehnat darslari asosida) kitob o'qish madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari o'rganish;

o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda o'zbek xalq ertaklarining ahamiyatini ko'rib chiqish;

kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali dunyoqarashini rivojlantirishning tajriba-sinovlari asosida samaradorlik usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasi natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali dunyoqarashini rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni, shakl va vositalarini o'rganish asosida ilmiy jihatdan aniqlash bilan asoslanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

Khamidov O. (2018). "Ta'lim va tarbiyada innovatsion yondashuvlar". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

Raxmatov Sh. (2019). "Kasbiy ta'limni tashkil etishning metodik asoslari". Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

Zahidov B., & Karimov, M. (2021). "O'quvchilarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida didaktik yondashuvlar". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

